

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 111 305,3 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 8,1 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 110,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,0 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	93 605,7	111 305,3	108,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91 860,1	108 955,9	108,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1 745,6	2 349,4	110,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91 860,1	108 955,9	108,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25 796,3	28 322,7	105,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23 931,1	29 189,4	110,1
sanoat	17 361,4	21 236,5	107,3
qurilish	6 569,7	7 952,9	117,4
xizmatlar	42 132,7	51 443,8	108,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15 800,0	19 183,3	111,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5 806,3	8 143,2	117,7
boshqa xizmat tarmoqlari	20 526,4	24 117,3	104,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 603,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,0 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,1	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	2,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28,1	26,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,1	26,8
sanoat	18,9	19,5
qurilish	7,2	7,3
xizmatlar	45,8	47,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	17,2	17,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,3	7,5
boshqa xizmat tarmoqlari	22,3	22,1




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 26,0 % ni, sanoat tarmog'i 19,5 % ni, qurilish 7,3 % ni va xizmatlar sohasi 47,2 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,9 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 2,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,2 f.p.) ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 26,0 %), sanoatda – 107,3 % (19,5 %), qurilishda – 117,4 % (7,3 %), xizmatlar sohasida – 108,6 % ni (47,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,1 % (17,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,7 % (7,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (22,1 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y

2025- y



5,2 %

YAHM

8,1 %



5,0 %

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi**

5,4 %



4,3 %

Sanoat

7,3 %



1,5 %

Qurilish

17,4 %



6,2 %


Xizmatlar

8,6 %



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,0 % va xizmatlarda – 112,5 % qayd etildi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 79 566,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 68 012,1 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 73,0 % ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 74,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd so'm

Ulushi, % da

2024- yil

68 012,1

74,0 %

2025- yil

79 566,8

73,0 %

